

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6 |
ISSUE 1**

2025

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 1



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ҲАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ISFT professori, siyosiy fanlar doktori (O'zbekiston)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси илмий
ва инновация ишлари бўйича проректори,
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги СЕУ университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети
халқаро ишлар бўйича проректори,
филология фанлари доктори,
профессор (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ГАБИТОВ ТУРСУН ҲАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети “Фалсафа” кафедраси
муdiri, фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган муҳандислик-технология институти профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ИНАКОВ КОМИЛЖОН ҚОДИРЖОНОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети доценти, педагогика фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доц.в.б., фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн-саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философии (PhD), по философским наукам, доцент
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философских наук (PhD), Национальный
университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана,
профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана,
академик Академии художеств Узбекистана,
доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института,
доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

проректор по научным исследованиям и инновациям
Международной исламской академии Узбекистана,
доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры
Славянских языков и литературы
Йельского университета (США)

АНТониО АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета
CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

проректор по международным связям
Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук,
профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор кафедры религиоведения и культурологии
Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби,
доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

заведующая кафедрой «Философия» Андижанского
государственного университета, кандидат
философских наук, профессор. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганского инженерно-технологического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоийского государственного педагогического института,
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

ИНАКОВ КАМИЛЖОН КАДЫРЖАНОВИЧ

доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD)
по педагогическим наукам (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

и.о. доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

доцент Наманганского государственного университета, доктора
философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD)
(Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант кафедры Философии и логики Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences,
Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

KHODZHIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Vice-Rector for Research and Innovation of the
International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

the head of the "Philosophy" department of Andijan
State University, DCs, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan Institute of Engineering
and Technology, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

INAKOV KOMILJON KODIRJONOVICH

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Associate Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RO'ZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD O'G'LI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Akmal Jumanazarov, Noibaxon Mamadalieva AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATIDA O'LCHASHLARNING QO'LLANILISHI.....	7
2. Fayzixodjayeva Dilbar Irgashevna SOHIBQIRON AMIR TEMUR QARORLARINING MANTIQUIY ASOSLANISHI.....	15
3. Karimov Elyor Erikovich, Madayeva Shahnoza Amanullaevna POSTJADIDCHILIK DAVRIDA O'ZBEK IDENTIKLIGINING SHAKLLANISHI.....	21
4. Nilufar Tuychiyeva Maxsutjanovna TASAVVUF ILMI RIVOJIDA ABU NASR SARROJNING O'RNI.....	30
5. Джураева Нигора Авазовна СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И КАЗАХСТАНА.....	40
6. Yusupova Dildora Dilshatovna YAQIN SHARQ MAMLAKATLARIDA ISLOMNING SIYOSIYLASHUVI VA UNING O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	49
7. Madayeva Mu'tabarxon Amanullayevna "SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDA ARABCHA SO'ZLAR VA BADIY SAN'ATLARNING UYG'UNLIGI.....	55
8. Xojiev Tunis Nurkosimovich YANGI MODERNIZATSIYA KONSEPSIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI...	61
9. Jo'rayev Anvar Muhammadiyevich IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI.....	69
10. Bultakov Begzod Abdurasulovich INTERNETDA MILLIY KONTENTNING OMMALASHUVI: O'ZBEK MADANIYATI VA TILINING RAQAMLI MAKONDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	79
11. Norboyev Javlon Akbarali o'g'li IBN AL-ARABIYNING VAHDAT UL-VUJUD TA'LIMOTIDAGI PANTEISTIK QARASHLAR VA KLASSIK PANTEIZM.....	86


ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE**

Nilufar Tuychiyeva Maxsutjanovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o‘rganish ICESCO kafedrasi dotsenti v.b.
nilufartuychieva79@gmail.com

TASAVVUF ILMI RIVOJIDA ABU NASR SARROJNING O‘RNI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15126839>

ANNOTATSIYA

Maqolada ko‘zga ko‘ringan tasavvuf nazariyotchilaridan biri Abu Nasr Sarroj Tusiy va uning “Luma” asari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Sarrojning mazkur kitobi bizgacha yetib kelgan tasavvuf ilmiga oid ilk tizimli kitob sifatida e’tirof etiladi. Tasavvufning mohiyati va uning ahli sunna doirasida shakllangan ilm ekani bilan bog‘liq tahlillar yoritilgan. “Luma” tasavvufni diniy ilmlardan biri ekanini dalillar asosida ko‘rsatib berish maqsadida yozilgan. Shu sababdan Sarroj fiqh, kalom, hadis kabi islom ilmlarining mavzusi va uslublarini tasavvufga yo‘l ochadigan tarzda tahlil qiladi. Tasavvufni islom axloqi va ma’naviyati bilan shug‘ullanuvchi, boshqa islom ilmlari kabi istinbot usulidan foydalanuvchi, lekin bu usul orqali fiqhning botiniy hukmlari bayon etiladigan mustaqil bir ilm sifatida tasvirlagan. Natijada, tizimli shaklda bir ilm yuzaga kelishiga zamin yaratgan. Tasavvufga nisbatan salbiy qarashlar yoki me’yordan tashqari amaliyotlarni chegaralash natijasida qabul ko‘rilgan bir fan yuzaga keldi. Bu ilm orqali insonni yuksak axloq darajasiga olib chiqish yo‘llari muhokama qilingan. Bunda Abu Nasr Sarrojning o‘rni beqiyos ekani ta’kidlangan. Bir so‘z bilan aytganda Sarrojning yondashuvi sufiylarning faqih va mutakallimlar bilan bo‘lgan munosabatini yaxshilashga xizmat qildi va kelajakda sunniy tasavvuf maktablarining shakllanishiga zamin yaratdi. Shuning uchun ham u tasavvuf tarixida “Ahli sunna val jamoa” e’tiqodi doirasidagi tasavvufiy ta’limotning asoschilaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: Luma’, sunniy tasavvuf, botiniy fiqh, zohiriy ilm, istinbot, tasavvuf, komil inson, ibohiyalar

Nilufar Tuychiyeva Maksutjanovna
International Islamic Academy of Uzbekistan
Acting Associate Professor of the ICESCO
Department of Islamic Studies and Islamic Civilization
nilufartuychieva79@gmail.com

THE ROLE OF ABU NASR AL-SARRAJ IN THE DEVELOPMENT OF SUFISM**ABSTRACT**

The article presents information about the prominent Sufism theorist Abu Nasr Sarraji Tusi and his work “Luma”. This work is considered one of the first systematized works on the science of Sufism to have survived to the present day. The article analyzes the essence of Sufism and its development within the Sunni tradition. “Luma” was written with the aim of proving that Sufism is

one of the Islamic sciences. For this reason, Sarraji analyzes such Islamic disciplines as fiqh, kalam, and hadith, guiding the reader through them to an understanding of Sufism. He describes Sufism as an independent science concerned with Islamic ethics and spirituality, using the methods of istinbat, similar to other Islamic sciences, while also explaining the internal aspects of fiqh. As a result, the foundation for the development of the systematized science of Sufism was laid. Thanks to the limitation of extreme practices and the elimination of negative views of Sufism, this discipline was recognized as a legitimate science. Sufism, as a science, is aimed at achieving the highest level of morality, and in this process, the role of Abu Nasr Sarraji is invaluable. His approach helped improve relations between Sufis and fuqahā' and mutakallimūn, and also laid the foundation for the formation of Sunni Sufi schools in the future. Therefore, he is recognized as one of the founders of Sufi doctrine within the belief system of "Ahl al-Sunnah wa'l-Jama'ah" in the history of tasawwuf.

Keywords: Luma', sunni Sufism, batinī fiqh, zahiri knowledge, istinbāt (the method of deriving sharia rulings from the Qur'an and hadith), sufism, the perfect human, bāhiyyah.

Нилуфар Туйчиева Махсуджановна

Международная исламская академия Узбекистана
доцент кафедры Исламоведения и изучения
исламской цивилизации ICESCO (и.о.)
nilufartuychieva79@gmail.com

РОЛЬ АБУ НАСРА САРРАДЖА В РАЗВИТИИ НАУКИ ТАСАВВУФА

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о выдающемся теоретике суфизма Абу Насре Саррадже Туси и его труде «Лума'». Этот труд считается одним из первых систематизированных произведений по науке о суфизме, дошедших до наших дней. В статье анализируются сущность суфизма и его развитие в рамках суннитской традиции. «Лума'» был написан с целью доказательства того, что суфизм является одной из исламских наук. По этой причине Саррадж анализирует такие исламские дисциплины, как фикх, калам и хадисы, проводя через них путь к пониманию суфизма. Он описывает суфизм как независимую науку, занимающуюся исламской этикой и духовностью, использующую методы истинбата, как и другие исламские науки, но при этом разъясняющую внутренние аспекты фикха. В результате была заложена основа для формирования систематизированной науки о суфизме. Благодаря ограничению крайних практик и устранению негативных взглядов на суфизм, эта дисциплина была признана полноценной. Суфизм как наука направлен на достижение высшего уровня нравственности, и в этом процессе роль Абу Насра Сарраджа является неоценимой. Его подход способствовал улучшению отношений суфиев с факихами и мутакаллимами, а также заложил основу для формирования суннитских суфийских школ в будущем. Поэтому он признается одним из основателей суфийского учения в рамках вероубеждения «Ахлю сунна валь джамаа» в истории тасаввуфа.

Ключевые слова: Лума', суннитский тасаввуф, внутренний фикх, внешние знания, истинбат (метод выведения шариатских норм из Корана и хадисов), суфизм, совершенный человек, ибахиты.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Tasavvuf ilmi shakllanish bosqichlari haqida bir necha qarashlar mavjud bo'lib, ular orasida tasavvufni uch qismga ya'ni zuhd davri, tasavvuf davri va tariqatlar davri shaklida o'rganish keng tarqalgan. Zuhd davri VII–VIII asrlarni o'z ichiga oladi, IX–XII asrlar tasavvuf davri bo'lib, XII asrdan to bugunga qadar tariqat davri hisoblanadi. Bu ilm aynan "tasavvuf" atamasi ostida XII asrdan qo'llanila boshlanib, tasavvuf tushunchalarining ilm sifatida o'rta chiqishi va nazariy asarlar yuzaga kelishi ham aynan shu davrga to'g'ri keladi.

Abu Nasr Sarroj Tusiyning (vaf. 988 y.) arab tilida yozilgan to'liq nomi "Kitabul luma' fit tasavvuf" asari tasavvufning asos mavzularini ichiga olgan va tasavvuf nazariyasi yaratilgan davrda

yozilgan bizgacha yetib kelgan ilk tizimli kitob hisoblanadi. Sarroj tasavvufning mohiyati va insonlarning tasavvuf haqidagi turli qarashlaridan yuzaga kelgan muammolar sababidan bu kitobni yozganini ta'kidlagan [8, b.536]. Kitobida sufiylarga oid tushunilishi murakkab bo'lgan masalalarni izohlashga harakat qilgani bois uni "Luma" (nurning porlashi, irfoniy nur) deb nomlagan. Umrining asosiy qismini Iroq va Xurosondagi sufiylar bilan uchrashish maqsadida safarlarda o'tkazgan muallif mazkur kitobini umrining so'ngida Tus shahrida yozganini keltiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sarrojning hayoti haqidagi manbalar cheklangan bo'lib, to'liq ismi Abdulloh ibn Ali ibn Muhammad ibn Yahyo, kunyasi Abu Nasr, nisbasi at-Tusiy bo'lgan bu muallif "Sarroj" va "Tavusul fuqaro" laqablari bilan mashhur bo'lgan [13, b.625]. Sarroj yashagan davrda tasavvufni diniy bilim sohasi ekanligi bilan bog'liq tortivushlar avj olgan edi. Junayd Bag'dodiy qarashlarini asos olgan va mo'tadil tasavvuf tushunchasini yozma shaklda ifoda etgan Sarroj sababli tasavvuf boshqa soha vakillari tomonidan ham qabul qilindi. Zero, muallif yashagan davrda fiqh, hadis va kalom ilmlarining usul va metodlari aniqlangan shuningdek, asoslari ham shakllantirilgan edi. Bu vaqtda sufiylar ilmiy sohalarda e'tiborsiz, so'zni emas mujohada va axloqni asos sifatida ko'rgan toifa kishilari edilar. Zuhd davridagi kishilarning ilmga befarqligi va faqatgina amal bilan chegaralanishlari bu sohaning tizimsiz va nazariyotsiz qolish bilan bog'liq muammolarga duchor qildi. Natijada boshqa islom bilimlaridan farqli ravishda rivojlanishda ortda qoldi hamda shu ilm vakillari tomonidan tanqidga uchray boshladi. Sufiylarga nisbatan zindiq yoki adashgan degan ayblovlar qo'yilishiga olib keldi. Bir qancha sufiylik da'vosidagi yolg'on mutasavviflar esa tanqidlarning avj olishini yanada kuchaytirdi. Buning guvohi bo'lgan Sarroj ham ichki tanqidlarga ham tashqi ayblovlarga sistematik va usul asosida "Luma" orqali javob berishga va bu fanni islom bilimlari safiga qo'shishga muvaffaq bo'ldi.

Tahlil va natijalar. "Luma" asari tasavvufning diniy ilmlardan biri ekanini isbotlash maqsadida yozilgan tasavvufning ilk usul kitobi sanaladi. Sarroj shu maqsad bilan fiqh, kalom, hadis kabi islom ilmlarining mavzusi va usullarini tasavvufga yo'l ochadigan tarzda tahlil qiladi va tasavvufni islom axloqi va ma'naviyati bilan shug'ullanuvchi, boshqa islomiy ilmlar kabi istinbot yo'lidan foydalanuvchi, lekin bu usul orqali fiqhning botiniy hukmlari bayon etiladigan mustaqil bir ilm sifatida tasvirlaydi [12, b. 232].

Tus shahrida tug'ilganligi taxmin qilingan Sarroj, dastlabki ta'limini shu shaharda olganidan so'ng, uzoq vaqt Bag'dod va Basrada keyinroq esa Bistom, Shom, Tustar, Antakiya, Ramla kabi shaharlarga ilmiy sayohat qilgan. Sayohatlarida ko'plab taniqli olimlar va sufiylar bilan uchrashish imkoniga ega bo'lgan Sarroj, Bag'dodda Junayd-i Bag'dodiyning (vaf. 909 y.) muridini Abu Muhammad ibn Abdulloh ibn Muhammad al-Murta'ishga (vaf. 940 y.) va manbalar "hadis bilimdoni sufiy" deb ta'riflagan Ja'far al-Xuldiyga (vaf. 959 y.) intisob etadi. Basrada Solimiya maktabining asoschisi hisoblangan Abul-Hasan Ahmad ibn Muhammad ibn Solim (vaf. 967 y.) bilan uchrashgan va Boyazid Bistomiyning turli shathiyalari haqida munozaralarda bo'lgan, Shomda esa mashhur hadis bilimdoni sufiy Abu Bakr Muhammad ibn Dovud ad-Dukkiy (vaf. 971 y.) dan hadis tinglagan. Bundan tashqari, "Luma"da keltirgan iqtiboslaridan Sarrojning ko'plab sufiylar bilan uchrashganligi tushunish qiyin emas.

Garchi, ko'plab shaharlarga sayohat qilganligi ma'lum bo'lsa-da, Sarroj, asosan, Bag'dod va Basralik sufiylardan iqtiboslar yoki rivoyatlar keltirgan. Ushbu ikki markaz esa ilgari surgan tasavvuf tushunchalari nuqtayi nazaridan bir-biridan farqli baholangan.

Sarroj "Luma" asarida sufiylarning dinni tushunishi va talqin qilishiga e'tibor qaratadi. Muallif ikki asosiy nuqtaga urg'u beradi. Birinchidan, tasavvufning o'z ilmiy sohasi bor. Shu sababli, boshqa islom ilmlaridan farq qiluvchi o'ziga xos ilmiy usullardan foydalanishi kerak. Tasavvuf ham diniy manbalarni talqin qilish huquqiga ega. Ikkinchidan, fiqh inson xatti-harakatlarining botiniy jihatlariga e'tibor qaratmaydi. Shuning uchun, Sarrojning fikricha, tasavvuf botiniy fiqhning bir turi hisoblanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Sarroj ibohiytlarning diniy majburiyatlarga beparvo munosabatiga qarshi tasavvufning kuchli diniy amaliyotlarga asoslanganligini ta'kidlaydi va sufiylar bilan ibohiytlar o'rtasida aniq chegara o'rnatadi.

Annamari Shimmel Sarrojni sunniy tasavvuf an'alarini shakllantirishga katta hissa qo'shgan shaxs deb baholaydi va uning asari keyingi tasavvuf nazariyotchilari, xususan, Qushayriy va Hujviri

kabi ulamolar uchun muhim manba bo'lganini ta'kidlaydi. Shuningdek, u Sarrojning tasavvuf va shar'iy ilmlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan yondashuvini ta'riflab, uning bu asari sunniy ulamolar va sufiylar o'rtasidagi munosabatni yaxshilashga xizmat qilganini ta'kidlagan [14, b. 95].

Sarrojning "Luma" kitobi o'n uch bo'lim va bir yuz ellik besh bobdan iborat. Luma' asari muhim manba ekaniga qaramasdan unga sharh yozilmagan yoki bizgacha yetib kelmagan. Shuningdek, tasavvuf nazariyotchilaridan Qushayriy, Hujviriyy, G'azzoliy, Sulamiy va Abu Hafis Suhravardiy [2]lar uning nomini tilga olishlari va uning Luma' asaridan iqtiboslar keltirganlari asarning ahamiyati yuqoriligini ko'rsatadi.

Taxminan bir xil davrda yozilgan va ilk tasavvuf klassiklari deb atashimiz mumkin bo'lgan "Ta'arruf", "Risola", "Kashfu'l-mahjub" va "Qutu'l-qulub" kabi asarlar bilan solishtirganda, "Luma" avvalo tasavvufning fiqh, kalom, hadis kabi boshqa islom ilmlari bilan bo'lgan munosabatini tizimli ravishda ko'rib chiqishi, tasavvufni mavzusi, sohasi va usuli bo'lgan ilm sifatida namoyon etishi va sufiylarning shathiya turidagi so'zlarini sunniy doirada talqin qilishi bilan ushbu klassiklardan farq qiladi. Shuningdek, sufiylarga o'xshashga harakat qilgan bid'at guruhlarining sufiylardan ajratilishi boshqa klassiklar bilan solishtirganda "Luma"da ko'proq ahamiyatga egaligi ko'rinadi. "Luma" ilk marta Reynold Alleyne Nikolson tomonidan 1914-yilda "The Kitab al-Luma Tasawwuf of Abu Nasr" nomi bilan Londonda chop etilgan [10].

Sarroj tasavvufni ko'rib chiqishdan oldin boshqa asosiy islom ilmlarini o'rganadi. Buni amalga oshirganda hadis va fiqhning sohasi, usuli va maqsadlari haqida to'xtalib o'tadi. Sarrojning fikricha, din manbalarida mavjud amaliy hukmlar sohasida ilmiy faoliyat olib boradigan faqihlarning usuli Kitob, sunnat, ijmo va qiyos yo'li bilan hukmlarni istinbot qilishdir. Sarrojning fikricha, fiqhning maqsadi ham diniy hukmlar haqida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni tushuntirishdir [1, b.14-15].

Sarroj faqihlar bilan bog'liq qarashlarini quyidagicha davom ettiradi: Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning ahkom va ibodatlariga oid so'zlari usulid-din mavzulari orasida joylashgan bo'lsa, ular bilan bog'liq hukmlarni fuqaholar tartibga soladi. Bu esa Sarrojning ayni paytda ilmlar iyerarxiyasi bilan bog'liq yondashuviga to'xtalishimizni talab qiladigan nuqtadir. Chunki Sarrojning fikricha, fuqaholar muhaddislarga nisbatan nozik tushunchaga ega bo'lganlari uchun ma'lum bir ustunlikka ega. Sarroj buning asosiy sababini faqihlarning Allohning hududlarini himoya qilishga harakat qiladigan va odamlarga halol va haromni o'rgatadigan shaxslar bo'lishi bilan tushuntiradi [1, b.14-84].

Ushbu sifatlar faqihlarni qanday qilib ustun qilganligi Sarrojda juda aniq bo'lmasa-da, uning fiqhnii hadis ilmida farqli bir darajada baholagani shubhasizdir. Ushbu holatni ikki jihatdan baholash mumkin. Birinchisi fiqhning ma'nosi va tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq. Ma'lumki, fiqh, ma'lum bir jarayondan so'ng "amaliy hukmlar" bilan shug'ullanadigan ilmga aylangan. Boshida, Abu Hanifaning (vaf. 767 y.) "fiqhul akbar" ta'rifidan ham ko'rinishi mumkin bo'lganidek, fiqh, aqida, amal yoki axloq kabi turli bilim sohalarini qamrab olgan keng ma'noda ishlatilgan.

Ushbu ta'rif doirasida fiqhul akbar ko'proq kalom ilmining sohasini ifoda etardi. O'xshash holat Hasan Basriyning (vaf. 728 y.) "faqih" ta'rifida ko'rinadi. Uning fikricha, faqih, dunyoga qiziqmay oxiratga yo'nalgan va diniy amrlarga nisbatan basiratli shaxsdir [1, b. 21]. Ushbu ta'rif birinchidan faqihlarning islomiy ilmlardagi obro'lariga nisbatan bir qarshilik bo'lsa, ikkinchi tomondan haqiqiy faqihlar sufiylar ekanligiga ishora qiladi. Sarrojning ushbu ta'rifni keltirishi e'tiborga loyiqdir. Chunki Hasan Basriydan keltirilgan ushbu ta'rif bilan Sarrojning fiqh tushunchasini kengroq qamrovda baholashi va shu bilan islom ilmlari ichida tasavvufga "fiqhul botin" sifatida o'rin ajratishini ko'rish mumkin. Ikkinchisi, sufiylarning ilmiy bilimlar bilan bog'liq va bu holat Sarrojning yuqoridagi xatti-harakatini ham tushuntiradi. Ma'lumki, Sarroj yashagan davrga, ya'ni hijriy IV asrning oxiriga kelguncha, islom ilmlari katta o'lchamda to'liq bo'lgan va turli sohalarda keng adabiyotlar shakllangan edi. Shunday qilib, ilk tasavvuf yozuvchilari, o'zlariga namuna bo'lishi mumkin bo'lgan, ma'lum mavzu va usullarga ega ilmlarni tanishgan edilar. Ustiga sufiylardan ba'zilar ma'lum islom ilmlarida mutaxassis bo'lishgan edi. Aytaylik, manbalar Junayd Bag'dodiyning faqih shaxsiyati haqida to'xtalib o'tsa, Qushayriyning ayni paytda mufassir, Kaloboziyning esa hadis bilimdoni ekanligi ma'lum. Bu holda ilk yozuvchilarning tasavvufni ushbu ilmlarni namuna qilib namoyon etganliklarini o'ylash mumkin [4, b.49].

Soʻz yuritilayotgan namuna ilmining katta ehtimol bilan fiqh ekanligini aytishimiz mumkin. Zero, Sarroj sufiylarning Qurʻon va hadis kabi asosiy islom matnlaridan hukm chiqarish usullarini fiqhdagi istinbot tushunchasi bilan tushuntirgan; mujtahidning ijtihodida xato qilishini va olimlar orasidagi ixtilofni ham sufiylarning qarash farqlari bilan bogʻlagan. Ushbu mavzuning tafsilotlariga oʻtishdan oldin Sarrojning boshqa islom ilmlariga oid yondashuvlariga toʻxtalishimiz kerak.

Sarroj ayni doirada hadis ilmini ham koʻrib chiqadi. Uning fikricha, hadis ilmining sohasi roviylarning ixtilof qilishlarining sabablari, rivoyatlardagi kamchilik va ortiqchaliklar va muhaddislarning hadis rivoyatiga oid qarashlaridir. Usuli esa taxminan hadislarni “tinglash” va “yodlash” shaklida yetkazish boʻlgan hadis ilmining maqsadi sahih va uydirma hadislarni bir-biridan ajratishdir [1, b.13-14].

Kalom ilmi haqida soʻz ketganda, Sarrojda baʼzan kalomning maqsadi fiqh ilmi bilan cheklanganligi koʻrinsa-da, aslida kalom ilmini mohiyat jihatidan fiqhdan ajratganligini koʻrmoqdamiz. Muallif kalomning qiyos va nazar usuli bilan dinni dushmanlarga qarshi himoya qilishni maqsad qilgan ilm ekanligini taʼkidlab, klassik kalom ilmi taʼrifi bilan mos keladi. Kelajakda yanada batafsil tarzda toʻxtalib oʻtadiganimizdek, Sarroj tasavvuf uchun ham ayni mezonlar bilan baholash qiladi. Yanada ochiq ifoda bilan aytganda, Sarrojning fikricha, bir fanning ilm hisoblanishi uchun maʼlum bir bilim sohasidan usul bilan soʻz yuritishi va maqsadi boʻlishi kerak.

Soha, usul va maqsad Sarroj bilan deyarli bir xil davrda yashagan boshqa islom bilimdonlari va mutafakkirlari tomonidan ham bir ilmdan soʻz yurita olishning sharti sifatida baholangan. Masalan Farobiy (vaf. 950 y.) “Ihsoul-ulum” asarida har bir ilmni taʼrifi, qismlari, asosiy tushunchalari va foydalari doirasida koʻrib chiqadi. Aytaylik, fiqh uning fikricha, “hukm chiqarish” ilmidir va insonning hukm qoʻyuvchining maqsadlariga koʻra hayotini tartibga solishiga foyda keltirsa, kalom ilmi hukm chiqarish bilan emas, balki hukmni himoya qilish ishi bilan shugʻullanadi [6, b.14]. Farobiy yashagan davrda tasavvuf ilmi nazariy jihatdan toʻliq qayd etilmagani bois ilmlar tasnifiga kiritilmagan edi. Ammo Sarroj xuddi Farobiy kabi ilmlarni baholayotganda ularning soha, usul va maqsadlariga urgʻu berishi va ilmlarning farqlanishini taʼminlovchi asosiy omillarning ham ular ekanligiga ishora qilishini kuzatish mumkin.

Sarrojning fikricha, eng avvalo muammo tasavvufning sohasini aniqlash edi. Boshqa soʻz bilan aytganda, muhaddislar rivoyat va roviyning holatlarini, faqihlar ham amaliy hukmlarni mavzu qilib olgan boʻlsalar sufiylar maʼlum sohaga yoʻnalganini Sarroj Jabroil hadisidan kelib chiqib belgilashga harakat qiladi. Uning tasavvuf sohasi bilan bogʻliq asosiy daʼvosi, imon-islom-ehson tartibida shakllantirilgan tuzilmada ehson mavzusi axloqni ifodalashi va ushbu sohada ilm qilishga vakolatli boʻlganlar sufiylar ekanligini namoyon qiladi. Boshqa ifoda bilan aytganda, Sarrojning fikricha, tasavvuf keng oʻlchamda axloq doirasidagi muammolar sababli keng tarqalgan va vaqt oʻtishi bilan ushbu muammolarni asoslash bilan bogʻliq bir nazariya yaratishga qaratilgan edi. Maʼlumki, ehson Allohga goʻyo uni koʻrayotgandek ibodat qilish demakdir. Ushbu holati bilan tushuncha, sufiylarning muroqaba, ixlos, tavakkul, rizo kabi koʻplab atamalar bilan tushuntirgan sayru sulukning maqsadini va eng yuqori saviyasini tashkil etardi. Shu sabab baʼzi oʻrinlarda tasavvufdagi oxirgi maqom ehson maqomi deb nomlanadi. Sufiylar nuqtayi nazaridan ehson maqomiga erishish, avvalo tavba, inoba, zuhd, tavakkul, tavgiz, rizo va ixlos kabi sayru sulukka oid majburiyatlarning bajarilishiga bogʻliqdir. Shu bilan birga, varaʼ, faqr, muhabbat, xavf, rajo kabi maqom va holatlar bahsida baholangan sayru suluk bosqichlarining oxirida maqsad qilingan, solikni axloqan komillikka yetkazishdir. Shu sababli Sarroj tasavvufning sohasini axloq sifatida aniqlaydi. Shunday qilib, Sarroj imon va amal sohasini kalom va fiqh ilmi bilan cheklagan va ehson sohasini axloq bilan bogʻlab, ushbu sohada ilm qilish salohiyati va vakolatini sufiylarga tegishli ekanligini taʼkidlagan.

Sarroj tasavvufning sohasini aniqlaganidan soʻng uning qanday usulni davom ettirganini koʻrib chiqadi. Sarrojning tushuntirishlaridan tasavvufiy usulning bir necha yoʻnalishdan koʻrib chiqish mumkin.

Birinchisi, umuman hadis, fiqh, kalom kabi islom ilmlarining usulini ifodalovchi naql va aql qarshisida sufiylarning sayru sulukni usul sifatida himoya qilishlari bilan bogʻliqdir. Masalaning Sarrojda markazlashgan nuqtasi maqomlar va holatlar bahsidir. Bu holat aslida umuman ilk tasavvuf asarlarida ham koʻrinadigan yondashuvdir. Chunki nafs tazkiyasi va qalbni tozalash jarayonining

qanday qilib bilim olish jarayoniga aylanganligi va ushbu jarayonda solikning boshidan kechirgan tajribalari “Risola”, “Ta’arruf”, “Kashful-mahjub”, “Qutul-qulub” kabi klassiklarda ham muhokama qilingan edi. Ushbu maqsad Sarroj bilan birga boshqa taniqli tasavvuf mualliflarining tasavvufiy hayotdagi bid’atlarga javob berish harakatlarining umumiy ifodasi deyish mumkin. Shu doirada sufiylarni diniy majburiyatlarga beparvo qaraydigan ibohiya va hululiya kabi bid’at guruhlardan ajratishning eng ta’sirli yo’li tasavvufiy usulning kuchli tarzda avvalo qurb-i faroiz deb atalgan farz ibodatlariga, so’ngra esa ajralmas tarzda qurb-i navofil ya’ni nafl ibodatlariga asoslanganligini namoyon etish edi. Shu ma’noda sufiylarning tez-tez “Bilganlari bilan amal qilganlarga Alloh bilmaganlarini o’rgatadi” [3, b. 15] mazmunidagi hadisni keltirishlari tasavvufiy usulning “amal”ga asoslanganligini; kuchli va doimiy tarzda bajarilgan amaliyotlardan so’ng Allohning bilimni ehson etishi haqida so’z borishini ifoda etish maqsadiga qaratilgandir. Ushbu yondashuv bir tomondan hol va maqom arimida ham ifoda etiladi. Holatlar o’zgaruvchan va o’tkinchi xususiyatga ega bo’lgani uchun solikning tezroq o’tishi kerak bo’lgan holatlar sifatida baholanadi va shu doirada sulukning maqsadi solikni ma’lum bir maqomda sobit tutish va solikning ichida bo’lgan maqomni himoya qilishini ta’minlash sifatida ajralib turadi. Boshqa ifoda bilan aytganda, maqom insonning fitratida mavjud bo’lgan yaxshi yo’nalishdagi axloqiy sifatlarning doimiy va uzluksiz xarakterga ega bo’lishini, shu tarzda sahif fitratning himoya qilinishini ifoda etadi. Sahif fitratning sog’lom tuzilishini himoya qilish esa kuchli va doimiy tarzda diniy majburiyatlarni bajarish bilan mumkin va bu xususiyat sufiylarni bid’at guruhlardan ajratadi. Sarroj ushbu yondashuvni kitobining “Sufiylarning odoblari” sarlavhasi ostida ko’rib chiqishni davom ettiradi.

Uning fikricha, sufiylar riyozat va mujohadaga oid bir qator amaliyotlari bilan ham o’zaro, ham jamiyatdan ajralib turadi. Ushbu ajralish avvalo sufiylarning ibohiy yoki hululiy guruhlardan, ikkinchidan boshqa dindor insonlardan ajralishi va oxirida o’zaro bilimlari bo’yicha farqlanishi shaklida namoyon bo’lardi. Qisqacha aytganda, Sarroj naqliy va aqliy ilmlar qarshisida tasavvufning nafs tazkiyasi va mujohada shaklida ifoda etilishi mumkin bo’lgan usulga ega ekanligini ta’kidlaydi. Bu holda tasavvufning ilm sifatida namoyon etilishi jarayonida ilk tasavvuf mualliflarining nafaqat islom olimlarini, balki sufiylik da’vosida bo’lgan islomdan tashqari guruhlarni ham suhbatdosh qilib olganligini aytish mumkin.

Kalom va fiqh tomonidan ko’rib chiqilgan e’tiqod tamoyillari va ibodatlar bilan bog’liq hukmlar barcha musulmonlar uchun majburiy bo’lsa-da, sufiylar ixtiyor tamoyiliga asoslangan nafl ibodatlar haqida so’z ketganda tasavvufga mansub bo’lganlar uchun majburiy, lekin qolganlar uchun majburiy bo’lmagan shaxsiy bilim sohasidan so’z yuritganlar. Sarroj ushbu mavzuni sufiylarning diniy matnlar bilan munosabatini ko’rib chiqib tushuntirishga harakat qiladi. Sufiylarning ham oyat va hadislarni talqin qilish va ulardan axloqiy hukmlar chiqarish vakolatlariga ega ekanligini ta’kidlagan Sarroj ushbu mavzuni ayniqsa ikki tushuncha atrofida ko’rib chiqadi: ishora va istinbot.

Ishora lug’atda ko’rsatish ma’nosini anglatadi va sufiylarning umuman Qur’on va hadislarni talqin qilish usullarining nomidir. Shu ma’noda diniy matnlarning umumiy va majburiy talqin qilish usuli bo’lgan tafsirning bir ost sarlavhasi shaklida baholanmoqda va sufiylarning talqinlariga “ishoriy tafsir” deyilmoqda [11, b.12].

Shu nuqtayi nazardan ishoriy talqin uslubiga ega bo’lish sufiylarni boshqa soha vakillaridan ajratib turadigan eng muhim xususiyatlardan biridir. Sarroj sufiylarning Qur’onga yondashuvlarini avvalo mutashobih oyatlardan kelib chiqib ko’rib chiqadi. Uning fikricha, Qur’onning muhkam va mutashobihlari mavjudligi bilan bog’liq oyat mutashobih oyatlarni talqin qiladigan maxsus va tanlangan guruhning bo’lishini talab qiladi [1, b.68].

Shunday qilib, Sarrojning nuqtayi nazariga ko’ra, sufiylar diniy matnlar bilan bog’liq zohir egalarining talqinlariga yordam beruvchi ikkinchi darajali talqin uslubiga ega bo’lishi bilan maxsus guruh sifatida ajralib turadilar.

Oyat yoki hadisga ishoriy usul bilan yondashish sufiylarning o’z uslublari mavjud edi. Sarrojga ko’ra sufiylarning asosiy maqsadi chegaralarini Qur’on va sunnat belgilagan tarzda axloqan yetuklashish edi. Shu sababli Sarrojning fikricha, tasavvufiy hayotning birinchi manbai bo’lgan Qur’on «tadabbur, tafakkur va tazakkur» bilan o’qilsa eng to’g’ri yo’lga erishiladi. Masalaning muhim jihati shuki Sarrojga ko’ra ishoriy talqin vositasida Qur’onni yanada tugal tushunish imkoni

yuzaga keladi. Chunki ushbu usul oxirida oyat haqidagi bilim Alloh tomonidan sufiylarning qalbiga joylashtiriladi [1, b.69]. Shunday qilib, sufiylar tasavvufiy usulning natijasi sifatida diniy matnlar bilan bog‘liq o‘ziga xos talqin uslubiga erishadilar. Sarroj ushbu yondashuvning natijalarini sufiylar bilan boshqa guruhlar orasidagi farq sifatida baholaydi. Aytaylik, sufiylarning turli munozaralardan uzoq turishi bilan kalom bilimdonlaridan ajralganligini ifoda etar ekan, mu‘taziliylarni nazarda tutadi va Qur‘onning maxluq emas, aksincha yaratilganlarning idroklari maxluq ekanligi haqida sufiylar orasida kelishuv mavjudligini ta‘kidlaydi [1, b.68].

Sarrojning ta‘kidlamoqchi bo‘lgan nuqtasi ahli sunnaning e‘tiqod va ibodat tamoyillari bilan zid kelmaydigan tasavvufiy usulning faqat amal bilan mumkinligi, shuning uchun diniy majburiyatlarni chetga suradigan ibohiyalar hech qachon sufiylar orasida hisoblanmasligidir. Shunday qilib, ishoriy usul bir tomondan sufiylarning umumiy va majburiy tafsir usuliga qo‘shgan majburiy bo‘lmagan va subyektiv hissasini ifoda etsa, ikkinchi tomondan o‘zlari bilan bid‘at guruhlar orasidagi chegarani belgilash yo‘llaridan birini tashkil etadi.

Sufiylarning oyat va hadislarga yondashuvlari haqida “ishora”dan keyin Sarrojda uchraydigan yana bir markaziy tushuncha “istinbot”dir. Axloqni tasavvufning sohasi deb qabul qilsak ham, qaysi usul bilan ushbu sohada ilm qilish mumkin bo‘lishini tushuntiradi. Fiqh, hadis, kalom kabi asosiy islom ilmlari uchun “naql va aql” shaklida ifoda etilishi mumkin bo‘lgan ikki asosiy usul mavjud edi. Bu holda sufiylar tomonidan davom ettiriladigan tasavvufiy usul qaysi jihatlardan naql va aql bilan mos kelishi mumkin bo‘ladi va ushbu usulning amal qilish muddati haqida Sarroj fiqhdan kelib chiqib javob beradi. Yanada to‘g‘ri ifoda bilan aytganda Sarroj uchun tasavvuf bilan orasidagi umumiy jihatlari aniqlanib ayni darajada baholanadigan namuna ilm fiqhdir va bu holat faqih va sufiylarning “istinbot” yondashuvlarida ko‘rinadi. Sarroj avvalo keng qamrovli faqih ta‘rifini izohlaydi. Uning fikricha, faqihlar eng umumiy ma‘noda “hukm chiqaradigan” ya‘ni istinbot qiladigan shaxslardir. Sarroj qarashlarini yana bir qadam oldinga olib chiqib, aslida islom ilmlariga oid turli usullarda ko‘rinadigan umumiy xususiyatning istinbot ekanligini ifoda etadi. Aytaylik, kalom vakillari ham natijada aqliy dalillardan nazar va istidlol yo‘li bilan e‘tiqodga oid hukmlarni istinbot qiladilar. Shundan kelib chiqib Sarroj sufiylarning ham ma‘lum ma‘noda “hukm chiqaradigan” shaxslar ekanligini namoyon etadi. Sufiylarning istinbot qilganlari qalbni tozalash va nafsni tarbiyalash bilan bog‘liq axloqiy hukmlar edi va faqat subyektiv ma‘noga egaligi boshqa ilmlarning ta‘minlagan bilimlaridan farqlanardi.

Sarrojning tasavvufiy usulni bir tur istinbot deb hisoblashi sufiylarni xususan faqihlar bilan, umuman esa boshqa soha vakillari bilan ayni doirada baholashga imkon beradi. Buning ma‘nosi oralarida turli farqlar bo‘lsa-da, asosan o‘xshash usullardan kelib chiqqan soha vakillarining ayni huquq va obro‘ga ega bo‘lishlaridir. Sarrojning fikricha, faqih va mutakallimlar kabi zohir va botin ilmi vakillari Qur‘on va hadisdan hukm chiqarishda teng huquqlidirlar. Oralarida ixtilof qilganlarida ham o‘z sohalaridagi vakolatni himoya qiladilar. Faqihlar ixtilof qilganlarida bu Allohning bir rahmati hisoblanadi. Ayni holat sufiylar uchun ham amal qiladi. Boshqa so‘z bilan aytganda Sarrojning istinbotdan kelib chiqib boshqa ilmlar va tasavvuf orasida umumiy daraja yaratishga harakat qilganda erishmoqchi bo‘lgan natijalardan biri ham sufiylarning o‘zaro ixtilof qila olishlari va ushbu kelishmovchiliklarda yechim faqatgina sufiylar tomonidan ifoda etilishi kerakligi edi. Ushbu yondashuvning majburiy natijasi har bir ilmning o‘z sohasida vakolat egasi ekanligi bilan bog‘liq. Shu sababli Sarrojning fikricha sufiylarning shatahat turidagi ifodalari yoki samo va vajd kabi tasavvufning munozarali bahslari faqat sufiylar tomonidan talqin qilinishi kerak.

Sarrojning ilmlarni baholayotganda ularning soha, usul va maqsadlarini tahlil qilganini ta‘kidlagan edik. Muallifning fikricha tasavvufning maqsadi esa shaxsning ma‘naviy hayotini yetuklashtirish, axloqini go‘zallashtirishdir. Ilm bo‘lishi nuqtayi nazaridan tasavvufning ushbu maqsadi “Luma”ning butunida ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan shaklda tez-tez takrorlanadi.

Xulosa qilib aytsak, Sarrojning tasavvufni islom ilmlaridan bir ilm sifatida ko‘rganligi; buni namoyon etayotganda tasavvufni qiyosiy tarzda boshqa asosiy islom ilmlari bilan birga ko‘rib chiqqanligi kuzatiladi. Uning fikricha, tasavvuf ham boshqa islom ilmlari kabi “istinbot” qilishi nuqtayi nazaridan bir ilmdir. Tasavvufning sohasi va usuli bo‘lgan bir ilm shaklida tasavvur

etilishining tasavvufning ilk klassiklari deb atashimiz mumkin bo'lgan asarlarda ham ustuvor xatti-harakat ekanligini ta'kidlash kerak.

Bularning barchasi boshida zuhidona hayot shaklida aniqlashgan tasavvufda taxminan hijriy II va III asrlardan so'ng yuzaga kelgan ilk nazariy tendensiyalarning tizimli darajada ko'rib chiqila boshlanganligini ko'rsatmoqda. Bu bilan bog'liq eng muhim muammolardan biri ham tasavvufning ilmlar tasnifidagi o'rni bilan bog'liq edi [7, b.101-119].

Bir ilmning sohasi, mavzusi, usuli va maqsadini tushuntirish yoki fan sifatida o'qitilishini osonlashtirish kabi vazifalarining yonida ilmlarni ma'lum sarlavhalarga ko'ra tasniflashning eng muhim yo'nalishi diniy ilmlar orasidagi munosabatning mohiyati haqida fikr bera olishidir. Shu sababli nazariy-amaliy; aqliy-naqliy; dunyoviy-uxroviy, shar'iy-shar'iy bo'lmagan shaklida sarlavhalar ostida ko'plab tasniflar qilingan. Sarroj ham turli shakllarda ilmlarni tasnif etgan. Ushbu tasniflarni ikki asosiy sarlavhada ko'rib chiqish mumkin. Birinchisi "Luma" hukmron g'oyasi bo'lgan ilmi zohir va ilmi botin shaklidagi tasnifdir. Ikkinchisi esa shar'iy ilmlar sarlavhasi ostida o'rganilishi mumkin.

Sarrojning fikricha amallar zohir yoki botindir. Bu holda tashqi kuchlarimiz bilan qilgan fe'llarimizga oid hukmlarni ilmi zohir berar ekan, insonning ichki tuyg'ulari vositasidagi «qalbning amallari» bilan bog'liq hukmlarni esa ilmi botin beradi. Bu yerda ilmi botin bilan tasavvufning nazarda tutilganligi ochiqdir. Ilmi zohir deganda Sarroj faqat fiqh bilan chegaralanmagan. Aksincha ilmi zohir hadis, kalom kabi boshqa ilmlar majmuini ham ifoda qilgan. Ilmlarning sohaslarini namoyon etayotganda Jabroil hadisini ko'rib chiqqan Sarroj hadisidagi "islom"ning zohir, "imom"ning zohir va botin, "ehson" esa zohir va botinning haqiqati ekanligini ta'kidlab ushbu uchlik tuzilmada tasavvufning zohir va botin haqiqatini ifoda etishi nuqtayi nazaridan "eng ustun ilm" ekanligini ta'kidlaydi [1, b.26-37]. Sarroj sufiylarni yuqoridagi ikki toifa vakillari bilan bir qatorga qo'yishga intilibgina qolmay, kitobxonni sufiy shayxlar, hech shubhasiz, ulardan ustun ekanini ta'kidlaydi. Masalan, faqat sufiy shayxlargina Qur'on va sunnatda belgilangan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga mos ravishda yashay olishlarini ta'kidlagan [9, b.151].

Sarrojning fikricha din ilmlari yoki shar'iy ilmlar uch asosga tayanadi: Qur'on, sunnat va imon haqiqatlari ilmi. Muhaddislar, faqihlar va sufiylar esa ushbu uch sohada ilmiy faoliyat olib boradigan toifalardir. Sarroj ushbu tasnifni davom ettirgan va to'ldirgan holda boshqa o'rinda ilmlarni to'rtga ajratadi va ilk tasnifida zikr etmagan "kalom"ni bu yerda "qiyos va nazar ilmi" shaklida kiritgan:

Rivoyat ilmi: ishonchli olimlarning siqa roviylardan yetkazgan ilmi.

Diroyat ilmi: fiqh va ahkomlarni tushuntiruvchi ilm.

Qiyos va nazar ilmi: jadal yo'li bilan bid'at ahlidan dinni himoya qiladi.

Haqiqatlar ilmi: tasavvuf. Barcha ilmlarning mohiyatini tashkil etadigan eng qimmatli ilm [1, b.323].

Ushbu tasnifda Sarrojning fikricha asosiy islom ilmlari hadis, fiqh, kalom va tasavvuf bo'lib to'rttadir va mavzusi nuqtayi nazaridan eng ustun ilm tasavvufdir. Biroq ilm tasniflarida tasavvufga o'rin berish Sarroj yashagan davrda keng tarqalgan yondashuv emas edi. Sarrojning zamondoshi Abu Abdulloh Xorizmiy (vaf. 997 y.) tasnifida ilmlarni asosan ikki toifaga ajratadi va har ikki toifada ham nom sifatida tasavvufga o'rin bermaydi:

Ulumush-shari'a: fiqh, kalom, nahv, Qur'on ilmlari, hadis kabi ilmlar.

Ulumu'l-ajam: falsafa, mantiq, tibbiyot, astronomiya kabi boshqa millatlardan olingan ilmlar. [5, b.3-5]

Ushbu holatni tasavvufning boshida amaliy hayot tarzi shaklida ko'rilishi va shu nuqtayi nazardan ma'lum bir vaqt "fiqh" ilmi ichida bir "fiqhi botin" yoki "fiqhi vijdoniy" sifatida tushunilishi bilan ifodalash mumkin.

Sarrojning ilmlar o'rtasidagi munosabat mavzusidagi asosiy yondashuvi esa har bir ilmning o'z sohasida vakolat egasi bo'lishi masalasidir. Sarrojning fikricha buning ma'nosi boshida shatahot bo'lishi bilan birga samo, vajd, jazba, fano kabi tasavvufning munozarali mavzularida so'z aytish vakolatining sufiylardan boshqasiga tegishli bo'lmasligini nazarda tutganini ta'kidlagan edik. Boshqa yo'nalish bilan Sarroj ilmlar o'rtasidagi munosabatni quyidagicha belgilaydi: "Rivoyat ilmida xato qilgan o'sha ilmning obro'li kishisiga, diroyat ilmi mavzusida xato qilgan shaxs diroyat ilmida

rivojlangan bir shaxsga murojaat etadi, aytaylik, qiyos va nazar ilmida xato qilgan bir shaxs o'sha xatosini rivoyat ilmida chuqurlashgan bir bilimdonidan so'ramaydi. Ayni holat sufiylar uchun ham amal qiladi". Sarroj sufiylarni ilmi zohir masalasida shu soha yetakchilari bo'lgan muhaddis va faqihlarga murojaat etishga majbur ekanliklarini ta'kidlagan. Buning boshqa ifodasi tasavvuf yo'liga kirishdan oldin islom zohiriy ilmlardan ta'lim olishi zarurligidir.

Boshqa tarafdin esa zohir olimlarining qarashlariga sufiylar to'liq amal qiladilar va ushbu qarashlar ichida eng mukammal bo'lganini tanlaydilar. Bu esa oson bo'lmagan va ko'p mehnat talab qiladigan jarayon ma'nosini anglatadi. Zero Sarrojning fikricha sufiylarni bid'at guruhlardan ajratadigan eng muhim xususiyat diniy majburiyatlarga qat'iy rioya qilish va amaliyotga asoslangan bir suluk jarayonini qabul qilishlaridir. Qisqacha aytganda Sarrojning fikricha tasavvuf ham boshqa islom ilmlari ega bo'lgan huquq va vakolatlarga ega bo'lishi kerak. Sohasi "axloq" shaklida chegaralangan va maqsadi ma'naviy hayotni takomillashtirish bo'lgan tasavvuf ushbu nuqtayi nazardan islom ilmlari orasida yuqori mavqeda o'rin olgan.

Xulosa. Sunniy tasavvufning eng muhim nomlaridan Junayd Bag'dodiy asos solgan sahiv maktabining bir izdoshisi sifatida Abu Nasr Sarroj zuhd davridan qolgan muammolarga javoban tasavvufni tizimli va qiyosiy tarzda ko'rib chiqqan. Buni amalga oshirganda tasavvufni sohasi va usuli bo'lgan bir islom ilmi sifatida tasniflagan va hadis, kalom va fiqh kabi asosiy diniy ilmlar yonida tasavvufning ham zikr etilishi kerakligini ilgari surgan. Uning fikricha tasavvuf boshqa islom ilmlari kabi istinbotni bir usul sifatida qabul qiladi, ammo nafl ibodatlariga katta ahamiyat berishi nuqtayi nazardan ulardan farqlanadi. Ilm sifatida tasavvufning sohasi Jabroil hadisida ta'kidlanganidek ehsandan kelib chiqib "axloq"dir. Tasavvufning axloqni yetuklashtirish bilan bog'liq muammolar bilan shug'ullanishi Kaloboziy, Qushayriy va Hujviriy kabi boshqa tasavvuf nazariyotchilari tomonidan ham ta'kidlangan bir xususiyatdir. Sarroj tomonidan tasniflangan ba'zi ilm turlari bilan ham tasavvufning islom ilmlari ichidagi imtiyozli o'rnini ta'kidlaydi va natijada har bir ilmning o'z sohasida vakolat egasi bo'lishi kerakligini qayd etadi.

Ushbu barcha munozaralar amaliy jihati bilan shakllangan zuhd davridan so'ng tasavvufdagi ilk nazariy qarashlarning ifoda etilishi, tizimlashtirilishi va qayd etilishi paytida ilk nazariyotchilarning boshqa islom ilmlariga ko'ra yondashuvlarini rivojlantirganliklarini ko'rsatadi. Shu sababli umuman islom ilmlari, xususan tasavvufning shakllanish jarayonlarini ham ushbu ta'sirsiz tasavvur etib bo'lmasligi ko'zga tashlanadi. Bunda esa Abu Nasr Sarroj qarashlarining o'rni beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr Sarroj. Luma'. –Misr: Maktabatu sa'ada, 1960. –B. 14, 15.
2. Abulqosim Qushayriy. Risalatul Qushayriya. – Misr: Matbaatu mustofal babil halabi, 1940.; Ali ibn Usmon Hujviriy. Kashful mahjub. – Bayrut, Darun nahdatul arabiya, 1980.; Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulum addin. Toshkent: Sharq, 2020.; Abu Abdurahmon Sulamiy. Tabaqotus sufiyya. Kitaab ash-shab, 1998.; Abu Hafs Suhravardiy. Avoriful ma'orif. – Bayrut: Qosim Ansoriy, 1966
3. Абу Нуайм Исфохоний. Хилятул авлиё. – Байрут: Дарул кутубул илмия. 1988, – Б. 15.
4. Ekrem Demirli, Sadreddin Konevi'de Bilgi ve Varlık, – İstanbul, İz Yay., 2005, – S. 49.
5. Ebû Abdullah Hârizmî, Mefâtihu'l-ulûm, Yay. Haz. Osman Halil, (y.y.), 1930, – S. 3-5.
6. Farâbî. İlimlerin Sayımı (İhsâu'l-Ulûm), çev. Ahmet Arslan, – İstanbul: Millî Eğitim Basımevi, 1924. – S.14.
7. Наси Байрам Баşер. Serrâc'in tasavvufa yaklaşımi: bir islâm ilmi olarak tasavvuf ya da fikhi-bâtin. Sakarya Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, cilt: XII, sayı: 22. 2010/2, – S. 101-119.
8. Kamil Yılmaz. el-Lüma' İslâm Tasavvufu/The Kitâb Al-Luma' Fi'l-Tasawwuf. – İstanbul: Erkam Yayınları, 2012. -536 s.
9. Musulmon tasavvufi / tarjimon Qodirqul Ro'zmatzoda. – Toshkent: "Fan ziyosi", 2022. – B. 151.
10. Nicholson, Reynold A., The Kitâb al-Luma fi'l-Tasawwuf of Abu Nasr, Leiden, London, E. J. Brill, Luzac and Co., 1914.

11. Süleyman Ateş, İşârî Tefsir Okulu, – İstanbul: Yeni Ufuklar Neşriyat, 1998. – S. 12
12. Ҳожи Байрам Башар. Абу Наср Саррож Тусий ва Лумаъ // <https://islamdusunceatlası.org/>
13. Шамсиддин Заҳабий. Тарихул ислам. – Байрут: Дарул китабил арабий, 1989. Жилд XXVI, – Б. 625.; Али ибн Усмон Хужвирий. Кашфул маҳжуб. – Байрут, Дарун наҳдатул арабия, 1980. – Б. 567; Фаридуддин Аттор. Тазкиратул авлиё. – Тошкент: Гофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – 464 б.
14. Шиммель Аннемари. Мир исламского мистицизма / пер. с англ. Н. И. Пригариной, А. С. Рапопорт. 2-е изд., испр. и доп. – Москва: ООО «Садра», 2012. – С.95.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 6, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000